

SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSI ASOSIDA TALABALARNI  
MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYALASH

*Ismoilova Sevinch Isroiljon qizi*  
*Namangandan davlat universiteti*  
*Pedagogika va psixologiya yo`nalishi*  
*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarda Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda buyuk Sharqning ulug' allomalari va mutafakkirlarining ilmiy merosi asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni ta'minlovchi eng muhim omil ekanligi, ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega ekanligi, shaxs ma'naviy axloqiy kamolotini shakllantirishning asosi ekanligi haqidagi to'la ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar.** Sharq allomalari, mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Sohibqiron Amir Temur, odob-axloq, sifat, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

**Абстрактный.** В данной статье важнейшим фактором, обеспечивающим духовно-нравственное воспитание учащихся на основе научного наследия великих ученых и мыслителей Великого Востока, в организации духовно-нравственного воспитания учащихся, духовно-нравственного воспитания и воспитания являются взаимосвязанные. Приводится полная информация о том, что она имеет диалектический характер, единство, согласованность, связь и является основой формирования духовно-нравственной зрелости человека.

**Ключевые слова.** Ученые Востока, мыслители, Абдулла Авлони, Сахибкиран Амир Темур, нравы, качество, духовно-нравственное воспитание.

**Abstract.** In this article, the most important factor that provides spiritual and moral education of students based on the scientific heritage of the great scholars and thinkers of the Great East in the organization of spiritual and moral education of students, spiritual and moral education and education are interconnected. Full information is given that it has a dialectic character, unity, coherence, connection, and is the basis of the formation of spiritual and moral maturity of a person.

**Keywords.** Scholars of the East, thinkers, Abdulla Avloni, Sahibqiran Amir Temur, manners, quality, spiritual and moral education.

Sharqu G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Sharqning ulug' allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va

taraqqiyot poydevori. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqati nazarida, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: matonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazokat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, ilm, sabr, intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, , iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatleri sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz yoshlik davrlaridan ilm ahliga juda katta e'tibor berganlar. Tarixlar, hikoyalar, qissalar va rivoyatlar tinglanmoqqa mayli, ko'p adabiyot, sanatni, harbiy ishlarni jon-dildan sevgan, o'ta zukko, oqil-u dono, fahm-farosatli, ayni chog'da dovyurak, jasur bo'lgan. "Amir Temur o'gitlari" risolasida haqqoniy ta'kidlanganidek, Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoya katta. Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zlari tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baholaydi.

**Birinchi sifat:** "Men sifatlarimning eng avvalgisi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim boyni kambağaldan ustun qo'ymadim".

**Ikkinchi sifat:** "Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim.

**Uchinchi sifat:** "Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har majoro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim".

**To'rtinchi sifat:** "Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga na'f yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim. Qur'ondagi parvardigorning Allohning amriga bo'ysunish va xalqiga

shafqat qilish darkor, degan oyatini o‘zimga farz bilib, o‘qib oldim va umr bo‘yi barcha yumushlarimda unga amal qildim”.

**Beshinchi sifat:** “Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo‘yib keldim. Avval tangri itoatini ado etib bo‘lgandan keyingina kundalik ishlarga qo‘l urdim.”

**Oltinchi sifat:** “Barcha so‘zlarimda doim haqiqatgo‘ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg‘ondan ajrata bildim”.

**Yettinchi sifat:** “Men har kimgaki va‘da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va‘daga xilof ish qilmadim. Men doimo va‘dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo‘lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim”.

**Sakkizinchi sifat:** “Doimo o‘zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim. Tangrining irodasiz uning bandalarining hech biriga zarar yetkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek hayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo‘lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko‘proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo‘lgan voqea menga ibratli bo‘ldi. O‘z fuqarolarining mol-mulkiga nisbatan nisbatan ochko‘zligi pirovardida uni halokatga olib keldi”.

**To‘qqizinchi sifat:** “Men har doim tangrimning amrini va uning payg‘ambarlarini hadislarini to‘la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo‘sinlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o‘zimni tiydim. Payg‘ambar va uning sahobalarini o‘zimning yagona va eng yaxshi do‘stlarim deb bildim”.

**O‘ninchi sifat:** Men har doim insof bayrog‘ini baland ko‘tardim va iymon tarqatishni o‘z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug‘ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo‘ladi.

**O‘n birinchi sifat:** “Men doim saidlarga extirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e‘zozlardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mexri baland edi va hamma mendan minnatdor edi”.

Shunday qilib, sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand -nasihatlar va purma‘no o‘gitlarining har bir mazmun va ma‘no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta‘siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob -axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Amir Temur bobomizning oqilona fikr yurtishlari, barcha insonlarni teng ko‘rishlari, adolat bilan ish yuritishlari biz talaba yoshlarga meros bo‘lib qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma‘rifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Alisher Navoiy bobomiz barcha asarlari va she‘riy

to'plamlarida ta'lim-tarbiya masalalariga ham alohida o'rin berilgan. Navoiy ta'kidlashicha, yer kurrasida yashayotgan barcha insonlar millatidan qat'iy nazar tengdir. U insonlar hayot mazmunini faqat mehnat tashkil etadi, deydi. Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir" -deb yozadi. Alisher Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot "chirogi" deb ta'riflaydi. Bu bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga muallimga berish lozimligini aytadi. Ana shu yoshlar ilk yoshidayoq fanlarni va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidladi. Shoir, eng avvalo, har bir kishi o'z xalqining tarixini bilishi shartligiga ahamiyat berib, uni chuqurroq o'rganishga da'vat etadi. Har bir xalqning tarixi mamlakatni xarob axvolga solgan nima-yu, uning ravnaq topishiga imkon bergan nima, shuni ko'rsatib bermog'i lozim, deydi. Alisher Navoiy pedagog, mudarris. U ta'lim-tarbiya alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarni ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur, deydi. O'ziga ham, o'quvchiga ham talabchan bo'lishini uqtiradi. Navoiy o'qituvchini jamiyatning obro'li va hurmatga loyiq inson deb bilib, shogirdlar muallimni vatandek hurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtiradi. Uning asarlarida axloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlari asosiy o'rinni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq allomlarining ilmiy merosi asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash haqida Amir Temur, Alisher Navoiy, Lutfiy kabi sharq mutafakkirlarimiz o'zlarining asarlarida va she'rlarida yozib qoldirganlar. Bular bizgacha yetib kelgan talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda asos bo'la oladi. Agar inson bir yil to'kin -sochin, baxtli yashashni istasa bug'doy, sholi ekib, unib-o'stirib, yig'ib -terib, bir yil rohatini ko'radi. Agarda u 10 yil shunday yashashni xohlasa mevali daraxt ekib bog' yaratadi va rohatini ko'radi. Inson bir umr rohat-farog'atdan baxtli -saodatli umr kechirishni xohlasa oqil va dono, solih va soliha, tarbiyali komil farzandlarini voyaga yetkazadi. Chunki, hamma havas qiladigan tarbiyali farzandlar nafaqat ota -ona, balki, oila jamiyat va yurt ravnaqining bosh negizidir.

Bugungi kunda yoshlarni O'rta Osiyo allomalarining ilmiy merosini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // Халқ сўзи, 2016, 19 октябрь.
2. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik.(Tuzuvchi -mualliflar: K . Hoshimov, S.Ochil; Tahrir hay’ati:M.Xayrullayev va boshqalar). T:O‘qituvchi, 1995.
3. Амир Темура жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Р.Қосимов. муаллифлар жамоаси: С.Саидқосимов (раҳбар), А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқ. – Т.: «Шарқ», 2006.
4. Мавлуда Қыдырбаева “Буюк алломаларимизнинг шарқ уйғониш даври маъданиятига қўшган ҳиссаси” “Science and Education” Scientific Journal 2020 й.
5. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
6. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O‘smirlar o‘rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
7. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O‘SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45
8. кизи Ахмедова, Д. С., & кизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОҒИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЈАЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 413-416.
9. Bannayev, M. S. (2022). O‘zbeksitonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. *Science and Education*, 3(6), 701–703
10. Bannayev, M. S. (2021). O‘zbeksitonda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari. *Science and Education*, 2(7), 293–297.